



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI MODERNIZATSIYALASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

**mavzusidagi iqtidorli talabalar
ilmiy-amaliy anjuman**

MATERIALLARI

MUNDARIJA

1-SHO'BA. TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARI Ibragimova Gulsanam Nematovna	3
MEDIA MATNLAR ASOSIDA TALABALARNI KOGNETIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIL- PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI Vaxabova Malika Yo'ldoshboy qizi	7
TALABALARNI KOGNETIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIL-PSIXOLOGIK TENDENTSIYA-LARI, Vaxabova Malika Yo'ldoshboy qizi	11
XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING IMKONIYATLARI Azizqulov Tohir Jahongir o'g'li	15
SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA YOSHLAR TA'LIM- TARBIYASI MASALALARINI TALQIN ETILISHI Mirzayeva Muqaddas Munosibovna	17
SHARQ ALLOMALARI ME'ROSIDA USTOZ - SHOGIRD VAZIFALARI HAQIDAGI ILG'OR QARASHLARI. <i>Sh.S.Shodmonova</i>	21
BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY, HISSIIY-IRODAVIY VA AXLOQIY SIFATLARI, Tajieva Maftuna	27
TALABALARNI MEDIA - MATNLAR YORDAMIDA KAGNITIVLIGINI SHAKLLANTIRISH, Abdullayeva Gavxar Ikramovna	31
TALABALARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH, G.M.Adizova	36
O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'ZARO MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, <i>Sh.X.Tashmetova</i>	39
TALABALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI, Shodmonova Sh.S.	43
BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY, HISSIIY-IRODAVIY VA AXLOQIY SIFATLARI, Tajieva Maftuna	47
O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODLARI, Shodmonova Sh.S.	51
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI, Shodmonova Sh.S.	58
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI, Shodmonova Sh.S.	61
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI, Shodmonova Sh.S.	64
TALABALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	68

Zulayxo Abdunazarova Sharifkulovna, Erkinova Charos, Ergasheva Saida	
O'QIVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODLARI, S. M.Mamatova, Ozoda Bekmurodova, Botirov Javoxir	72
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI, Sh.Boyjigitov, Sulaymonova Munisa	79
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISH MECHANIZMLARI, Olimova Feruza, Azizkulov Toxir	83
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ, Гаппарова Мафтуна Эркиновна, Эркинова Чарос	86
СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЙ «КОНТРОЛЬ И ОЦЕНКА ЗНАНИЙ», «НЕТРАДИЦИОННЫЕ СПОСОБЫ КОНТРОЛЯ И ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ ШКОЛЬНИКОВ», Уразова М.Б., Бычкова В.А.	90
ПСИХОЛОГО – ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ОПЫТ, НАПРАВЛЕННЫЙ НА ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ИНТЕРНЕТ-ТЕСТИРОВАНИЯ БАЗЫ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ	92
Уразова М.Б., Тохирова Л.Р.	
УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖТИМОИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА, Мухсиева А.	95
BO'LAJAK PEDAGOGIYALARNI TAYYORLASHDA VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH, Muxsiyeva A. Sh., Jo'ramurotova Sarvinoz Otabekovna	99
UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARI BILIM DARAJASINI BAHOLASHDA TESTLARNING AHAMIYATI, Norposhshaxon Xabibullaevna Voxidova, Aksakalova Nilufar	102
TA'LIM MUASSASALARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR Norposhshaxon Xabibullaevna Voxidova, Pirova Muqaddas	105
OLIY TA'LIMDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISHGA YANGICHA YONDASHUVLAR, Norposhshaxon Xabibullaevna Voxidova, Tulyakov Ahmadjon	108
ШАХС ВА ОИЛА ТАРБИЯСИ, Норпошшахон Хабибуллаевна Вохидова, Шахноза Шукурова Сайфулла кизи	111
XALQ PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK VA TARBIYAVIY IMKONIYATLARI. Umarova.M.X., Shamsiyeva S.	114
XALQ PEDAGOGIKASI MANBALARIDA OILAVIY TARBIYA MASALALARINING IFODALANISHI. Umarova.M.X. Toshmurodova Ch.B.	116
O'QUVCHI-YOSHLARNI MA'NAVIY VA MADANIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Umarova.M.X., Safarova D.SH.	118

ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi e'tirof qiluvchi irsiyat, muhim tarbiyadir. Beruniy inson har tomonlama kamolotga yetish uchun u ilmiy bilishi bilan birga mehnatsevar va xunar egasi bo'llish kerak deydi.' Yuqoridagilardan ko''rinib turibti Beruniy komil insonni ga oid bu fikrlari faqat zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiya ishlar takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o''zi ham xaqikiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni
2. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 255 b.
3. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan, 1989. – 365 b.
4. Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., Shodiev D. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: Fan, 1996. – 310 b

**O'QIVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIGINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH METODLARI**

S. M. Mamatova

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri

№ 8 sonli umumiy o'rta ta'lim maktab derektori

Ozoda Bekmurodova

Bux.vil. G'ij.tum.Sport- internat

maktabi o'qituvchisi

Botirov Javoxir

TDPU talabasi

Annotatsiya. Ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni va fanlararo aloqadorlikning ahamiyati va zaruriyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Ta'lim - tarbiya, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, faoliyat, ijtimoiy-iqtisodiy talablar, shaxs, ta'lim metodlari va yondashuvlar, kasbiy mahorat, xuquqiy, demokratik va fuqarolik tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish sohasidagi ishlar ahvolini tanqidiy tahlil qilish zaruratini ta'kidladi: «Yana bir muammoni hal etish o'ta

muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur». [1] Natijada mamlakatimiz ta'lim tizimi jahon andozasi asosida yanada takomillashadi, kadrlar sifati raqobatbardoshlik muhitiga tezkor moslashadi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy buyurtmasi pedagogik oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning natijaviyligini ta'minlovchi pedagogik innovatika g'oyalarini joriy qilish bilan bo'lg'usi o'qituvchilarning pedagogik innovatsion faoliyatdek kasbiy taqozolangan funksiyasini bajarishning amaldagi tayyorgarlik darajasi o'rtasida ma'lum ziddiyatlarlarning mavjudligi Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlarida inson huquqi va erkinliklariga qat'iy rioya qiluvchi, xo'jalik yuritishning bozor munosabatlari, zamonaviy texnologiya, jamiyatning ma'naviy yangilanishi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi asosida ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishni ta'minlaydigan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish maqsadi belgilandi. Mazkur maqsadga erishishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 7 fevral 2017 yil farmoni bilan 2017—2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqilishi ayniqsa ta'lim sohasini davlat siyosatida ustuvor o'rin tutih bilan birga keng jamoatchilik ishtirokini ham talab qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. To'rtinchi yo'nalish ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish va yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bilan birga ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlarini tashkil etish haqida alohida uqtirib o'tildi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni tashkilotchilari faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida shakli bo'lgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, uning maqsadi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida ularni yuksak insoniy sifatlarini tarbiyalashdan iborat. Olib borilgan ta'lim-tarbiya natijasida ta'lim oluvchi shaxsining turli xislatlari, fazilatlar va ko'nikmalari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish va rivojlantirish turli pedagogik texnologiyalarni, metod va yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga asoslanadi. Ushbu metodlar va yondashuvlar, bir

tomondan, o'qituvchining pedagogik faoliyati va ta'lim oluvchining shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning faoliyatlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metodlar, yondashuvlar, texnologiyalar va ta'lim vositalari orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari kabi ob'ektiv xususiyatlarga ega hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradoligi haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajribalarga asoslangan tadqiqotlar natijalariga ko'ra qo'llanadigan metodlar va yondashuvlarga asoslanish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda [2] "ilmiy bilish metodlari – bu ob'ektni o'rganishning asoslangan izchil usullari va qoidalaridir. Muayyan fanlarning umummilliy, xususiy va maxsus metodlari farqlanadi. Tabiiyki, fan epistemologiyasida ularning dastlabki ikkitasi bevosita qiziqish uyg'otadi", deb ta'kidlangan holda kuzatish, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, abstraklashtirish, analogiya, modellash kabi metodlar keltiriladi va ular quyidagicha ta'riflanadi: Kuzatish – bu bilishning shunday bir metodiki, bunda sub'ekt ob'ektning tuzilishi va rivojlanishiga aralashmaydi. U mavjud sharoitlarni o'zgartirmaydi, chunki unga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Kuzatishning ilmiy bilish metodi sifatida afzalligi shundaki, u o'rganilayotgan hodisaning ob'ektiv manzarasini berishi mumkin. Ilmiy kuzatish – bu chinakam ijod, haqiqiy mahorat va san'atdir

O'quvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy yondashuv zarur bo'lib, mazkur yondashuvda kuzatish metodi o'ziga xos ahamiyat ega sanaladi. Chunki kuzatish jarayonida o'qituvchi o'qituvchilarning dunyoqarashi, mustaqil va erkin fikrlash darajasi, ta'lim-tarbiya jarayoniga va o'rganilayotgan tushunchalarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, kuzatish natijalariga asosan o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining holatini vaziyatlarga ko'ra aniqlash va zaruriyatga ko'ra vaziyatlarni o'zgartirish, o'qituvchilarni faolligini hamda mutaqil faoliyatini ta'minlovchi metodlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ilmiy bilim olish metodi – induksiya, ya'ni alohida, parchalangan, tizimga solinmagan ma'lumotlardan umumlashtirishlarga, ilmiy gipotezalar, nazariyalar, qonuniyatlarni tuzishga o'tish yakka ilmiy faktlardan ularni tushunish va tushuntirishga o'tishni ta'minlaydi. Ilmiy ijodda mushohada yuritish va xulosa chiqarish xususiydan umumiy, yaxshi rivojlanmagan ilmiy bilimdan teran, yanada rivojlangan ilmiy bilim sari induktiv xulosa chiqarishga asoslanadi. [2]. Deduksiya ilgari olingan bilimda yashirin axborot resurslarini aniqlash imkonini beradi. Deduksiyadan foydalanish darajasi u yoki bu muayyan fanning rivojlanganligi, yetukligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Real ilmiy ijod jarayonida induksiya va deduksiya o'zaro bo'lanadi hamda

bir-birini to'ldiradi. Bundan tashqari, ular analiz va sintez kabi umumfalsafiy va umumilmiy metodlar bilan ham bog'langandir. Analiz – bu bilish predmetini fikran qismlarga ajratish, uning alohida tomonlari, xossalari, belgilarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni ajratish, ob'ektning mohiyatini anglab yetish maqsadida uning turlarini aniqlash demakdir. Sintez – bu predmetning bilingan tomonlari, belgilari, xossalari va hokozolarni fikran birlashtirish, ob'ektning tuzilishini uning barcha aloqalari, munosabatlari, rivojlanishi va faoliyatiga bog'lab tushunib yetishdir [2]

Analiz va sintez insonning fikrlash usullari, ya'ni ijodiy fikrlash usullari ekanligiga asoslangan holda biz induksiya va deduksiyaning analiz va sintez bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi fikrlarga qo'shilamiz. Bizning fikrimizcha, aynan refleksiv yondashuv jarayonida induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullaridan foydalaniladi, ya'ni refleksiv yondashuv jarayonida o'qituvchilarning tahliliy faoliyati tashkil etiladi va tahliliy jarayonda olingan ma'lumotlar o'qituvchilarning boshlang'ich tushunchalari bilan umumlashtiriladi. Shuningdek, refleksiv yondashuvda o'tmishni o'rganish va tahlil qilish jarayonida olingan ma'lumotlarni umumlashtirish induksiyaning ifodalasa, ob'ektiv baholash asosida o'qituvchilarda aniq va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan xulosalar, tushunchalar shakllanishi deduksiyaning ifodalaydi. Tahliliy fikrlash analizni ifodalasa, xulosalar chiqarish sintezni ifodalaydi, bular o'z navbatida, sintez doimo analizga asoslanishini hamda ular biri ikkinchisiz mavjud bo'lmazligini tasdiqlaydi. Bular fikrlash usuli xususiyatlari bo'lib, ularning mazmuni muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlarda, ya'ni yangi tushunchalarni shakllanishi va yangilik yaratish jarayonida namoyon bo'ladi. Bular o'z navbatida divergentlik, realistlik, moslashuvchanlik, tanqidiylik va boshqa fikrlash usullari bilan birgalikda ijodiy fikrlashni tashkil etadi.

A.Rasulovning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham ahamiyatli bo'lib, ta'lim oluvchilarni mulohaza yuritishga, masalalarni tahlil qilishga, mas'uliyatni his qilishga, mustaqil faoliyat ko'rsatishga, shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirishga, guruh va jamoa bo'lib ishlashga, faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirishga o'rgatadi. Muallifning fikricha, ta'lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o'qitishga quyidagi talablar qo'yiladi: qo'yilgan muammoning muhimligi; muammo o'ylab topilmasligi, real hayotdan olinishi; ta'lim oluvchilar uchun muammoning ahamiyatliligi; muammoning aniq muqobil yechimlarga ega bo'lishi; ta'lim oluvchilarning hamkorlikda faol ishlashi; muammoga aloqador axborotlar bazasini yaratilishi va boshqalar.

Shuningdek, ta'lim oluvchilarning mazmunli va izchil bilim olishini ta'minlash; muammo yechimlarini topish va uning boshqa yechimlari bo'yicha ham istiqbolli rejalar ishlab chiqish; ta'lim oluvchilarni guruh-guruh bo'lib ishlash va muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga o'rgatish; ta'lim oluvchilarda shaxsiy

mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish va mustahkamlash muallif tomonidan muammoli o'qitishning asosiy maqsadlari sifatida keltiriladi [3]. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, kasbiy faollik, kompetentlik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati borasida ularning boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda refleksiv yondashuv ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan trening, interfaol suhbat, integrativ ma'ruza, ishchanlik o'yinlari kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarning tahliliy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, ishbilarmon o'yinlari orqali innovatsion faoliyatning usul va shakllarini yorituvchi, o'qituvchilar faoliyatini kuzatish asosida o'qituvchilarning o'zaro ta'sir ko'rsatishga undovchi metodlardan foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda integrativ ma'ruzalar, amaliy mashg'ulot, seminar-treninglardan foydalanish bilan bir qatorda, o'qituvchilarga oldindan tarqatiladigan savol va topshiriqlardan foydalanish juda katta samara beradi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarni o'qituvchilarning boshlang'ich tushunchalariga asosan, ya'ni ularning boshlang'ich tushunchalarini o'rganish va tahlil qilish orqali ular tomonidan mustaqil ravishda o'rganilgan adabiyotlar, ma'ruzalar jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida tashkil etish o'rganiladigan asosiy tushunchalarni test va modellar ko'rinishida ifodalash uchun imkoniyat yaratadi [4]. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida interfaol suhbat, ishchanlik o'yinlari, trening kabi metodlardan foydalanish o'qituvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatishda, kreativligini oshirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'qitishning faol metodlari hisoblangan mazkur metodlar ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning faolligini ta'minlaydi, ya'ni o'qituvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ishchanlik o'yini jarayonida ishtirok etuvchi o'qituvchilar asosiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tahlil qiladilar, tahlil natijalariga ko'ra xulosalar shakllantiriladi va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ishchanlik o'yini davomida o'qituvchilarning boshlang'ich tushunchalari, dunyoqarashi, ko'nikma va malakalari darajasi aniqlanadi hamda vujudga kelgan vaziyatlarga ko'ra topshiriqlar muvofiqlashtiriladi. Ishchanlik o'yini o'qituvchilarning refleksiv qobiliyatlari va imkoniyatlari darajasini hamda kreativ va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Trening ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini taminlashda

muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodlardan biri hisoblanadi. Mazkur metodga asoslanib tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarda kommunikatsion ko'nikmalar shakllanadi. Trening jarayonida o'qituvchilarning o'zaro ta'sir ko'rsatishi natijasida ularda muloqotning turli xil uslublaridan foydalanish malakalari rivojlanadi. O'quvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish asosida ularning faolligini ta'minlash, bevosita muloqotga kirishishga undash, o'z fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida aqliy hujum, g'oyalar konferensiyasi kabi metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarning adabiyotlar va turli manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini va innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quv jarayonida mavzular bo'yicha adabiyotlar tanlash, maqolalarga annotatsiya yozish, belgilangan maqsadlarga erishish rejalarini tuzish, belgilangan topshiriqlar yo'nalishidagi muammolarni aniqlash ishlariga ta'lim oluvchilarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. S.T.Turg'unovning ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mazkur jarayonga innovatsiyalarni tatbiq etish, o'qitishning eng ilg'or texnologiyalaridan foydalanish, sub'ektlarning innovatsion faoliyatini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini shakllantirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sub'ektivligini oshirish hisobiga "o'qituvchi-o'qituvchi" munosabatlaridan "o'qituvchi-o'qituvchi" va "o'qituvchi-o'qituvchi" munosabatlariga o'tish asosida o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish va ularni shakllantirish zahirida, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish, ularning yangi shart-sharoitlarga va zamonaviy talablarga psixologik moslashuvini tezlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash mumkin [4]. Mazkur fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim, mustaqil ta'lim (pedagogik amaliyot, kurs ishlari va bitiruv-malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonlari) hamda o'qituvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi mavjud tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini o'zaro bog'liqligini o'rganish, tahlil qilish hamda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini inobatga olgan holda ularni samarali o'zlashtirishga mos keladigan metodlar va yondashuvlarni tanlash va ulardan foydalanish mazkur jarayonlarni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, o'qituvchilarda kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim, mustaqil ta'lim (pedagogik amaliyot, kurs ishlari va bitiruv-malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonlari) hamda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi mavjud tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini o'zaro bog'liqligini

o'rganish, tahlil qilish hamda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini inobatga olgan holda ularni samarali o'zlashtirishga mos keladigan metodlar va yondashuvlarni tanlash va ulardan foydalanish mazkur jarayonlarni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonini, mustaqil ta'lim jarayonini, pedagogik amaliyot, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonlarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro aloqalari va bog'liqligini inobatga olgan holda ularni muntazam rivojlanib boruvchi tizim komponentlari sifatida tasavvur qilib tizimli yondashuvni tatbiq etish zarur hisoblanadi. Tizimni tashkil etuvchi komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, har bir komponent yaxlit tizimning o'zgarishiga (ijobiy yoki salbiy) ta'sir ko'rsatishi hamda tizimning o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tushunchalar o'ziga xos tizimni tashkil qilishi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarni o'rganishga tizimli yondashuvni tatbiq etish zaruriyatini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

6. Mirziyoev Sh.M. "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". 2017 yil 7 fevral.
7. 2Caifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov B. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 199 b.
8. 3.Rasulov.A. Muammoli o'qitishga yangicha yondashuv // Kasb-hunar ta'limi jurnali. – 2004. – №3. – 5 – 6-b.
9. 4.Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. – 363 b.
- 5.Zimnyaya I.A.Pedagogicheskaya psixologiya.– M.: Logos, 2000.– 384 s..6. 6.Kuxarev N.V., Reshetko V.S. Diagnostika pedagogicheskogo masterstva i pedagogicheskogo tvorchestva. – Minsk, 1996. – S. 32.
6. Мирзаева Фарохат Одилжоновна. "FEATURES OF INTERNATIONAL PERSONAL RELATIONS IN THE FAMILY." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2.1 (2020): 383-389.